

ARAB ADABIYOTI ADIBI NAJIB MAHFUZ HAYOTI VA HIKOYALARINING
TAHLILI

Yo'ldoshxo'jayev H.H.

Yangi asr universiteti PhD, dotsent.

Botirova Madinaxon Boriy qizi

YAU Filologiya va tillarni o'qitish: Arab tili fakulteti 4-bosqich talabasi.

madinabotirovab@gmail.com +99890 976-11-97<https://doi.org/10.5281/zenodo.17565628>

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab adibi, “Nobel” mukofoti sovrindori Najib Mahfuzning hayoti va ijodi tahlil qilinadi. Unda adibning yoshlik davridan boshlab ijod dunyosiga kirib kelishi, asarlarining badiiy va falsafiy mohiyati hamda ularning mazmunini yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, Mahfuz ijodiga xorijiy yozuvchilarning munosabati, ularning fikr va baholari keltiriladi. Adibning hikoyalari orqali Misr jamiyatining o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy holati, xalq hayotidagi qiyinchiliklar va insoniy kechinmalar tahliliy tarzda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Najib Mahfuz, arab adabiyoti, Nobel mukofoti, Misr jamiyati, hikoya, badiiy tahlil, ijod.

Аннотация. В данной статье анализируется жизнь и творчество арабского писателя, лауреата Нобелевской премии Наджиба Махфуза. В нем освещается вхождение писателя в мир творчества с юных лет, художественно-философский характер его произведений, их содержательные направления. Также приводится отношение зарубежных писателей к творчеству Махфуза, их мнения и оценки. В рассказах писателя аналитически раскрывается социально-политическая ситуация в египетском обществе того времени, трудности и человеческие переживания в жизни народа.

Ключевые слова: Наджиб Махфуз, арабская литература, Нобелевская премия, египетское общество, рассказ, художественный анализ, творчество.

Annotation. This article analyzes the life and literary career of the Arab writer and Nobel Prize laureate Naguib Mahfouz. It highlights his early years, his entry into the world of literature, and the artistic and philosophical essence of his works. The article also presents the opinions and evaluations of foreign writers regarding Mahfouz's creative legacy. Through the analysis of his stories, the paper explores the socio-political situation of Egyptian society at that time, as well as the struggles and emotional experiences of ordinary people.

Keywords: Naguib Mahfouz, Arabic literature, Nobel Prize, Egyptian society, short story, literary analysis, creativity.

Najib Mahfuz Abdulaziz Ibrohim Ahmad Al-Posho 1911-yilda Qohiradagi misrlik musulmonlar oilasida dunyoga keladi. Adibning tug'ilish jarayoni og'ir holatda kechgani sabab, uning ismini tug'riq jarayonini nazorat qilgan akusher Najib Posho Mahfuzning sharafiga qo'yilgan. Najib oilaning kenja farzandi bo'lib, uning to'rt akalari va kki opalari bo'lgan. Shunday qilib iqtidorli yettinchi farzand edi. U Qohiraning ikki mashhur tumanlarida istiqomat qilgan. Bu joylar Mahfuzning hikoya va asarlarida o'z aksini topgan. Gamaleyadagi al-Qodi mahallasida va Qohira chetidagi Abbosiyada yoshlik davri o'tgan.

Dindor oila muhiti va qattiq islomiy tarbiyada voyaga yetdi. U oiladagi bu muhitni keyinchalik shunday ifodaladi: “O'sha oiladan san'atkor chiqadi deb hech o'ylamagan

bo'lardingiz". 1919-yil Misrda yuzaga kelgan inqilob yosh Mahfuzga kuchli ta'sir etadi. Bu haqida "Siz aytshingiz mumkinki, mening bolaligim xavfsizligini eng ko'p larzaga keltirgan narsa 1919-yil inqilobidir" deb xotirladi.

U hayotga real ko'z bilan boqishni afzal deb bilardi. ba'zi adiblarning yozgan asarlari va hikoyalardan farqli o'laroq uning hikoyalari reallikga va siyosatga qaratilgan dolzarb mavzular, Misr hayotining o'sha davrdagi qiyinchiliklarini yaqqol ko'rsatib beradi.

Adib o'rta maktabni bitirgach 19 yoshida Misr universitetiga (hozirgi Qohira universiteti) o'qishga qabul qilindi va falsafa bo'yicha tahsil oldi. O'qishni tamomlab o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat olib bordi, lekin u bu kasbni butunlay tark etib adiblik hayotini tanladi. Uning birinchi asari 1929-yil "Al-Majalla Al Jadida" jurnalida ko'rinish berdi, keyinchalik esa gazetalarda qisqa hikoyalari ham chop etildi. 1954-yilda oila qurishga Musharraf boldi va iki qiz otasiga aylandi. Ularning ismi Ummu Kulsum va Fotima edi. Adib ommaga oshkor bolishni va shaxsiy hayoti haqida so'rovlarni yoqtirmasdi.

Hayoti davomida 34 ta roman, 350 dan ortiq qissa, kino ssenariylar va 5 ta pyesani nashr ettirgan. Mahfuzning ilk asarlarining aksariyati Qohirada yozilgan. "Taqdirlar o'yini" (1939), "Radobis" (1943) va "Fivlar kurashi" (1944) 30 romandan iborat katta nihoyasiga yetkazilmagani loyiha doirasida yozilgan tarixiy romanlar ed. Ser Valter Skottdan (1771-1832) ilhomlangan Mahfuz bir qator kitoblarda Misrning butun tarixini yoritishni rejalashtirgan. Biroq, uchinchi jildidan keyin uning butun e'tibori quyidagi mavzularga qaratildi: o'sha davr sharoiti va muammolari, shuningdek, ijtimoiy o'zgarishlarning oddiy odamlarga ruhiy ta'siri.

Najib Mahfuzning 1966-yilda chop etilgan "Nil ustidagi safsata" romani eng mashhur asarlaridan biridir.

Keyinchalik Anvar Sadat davrida bu romanga asosan film suratga olingan. Hikoya Jamal Abdunnosir davridagi Misr jamiyatining tanazzulini tanqid qiladi. Bu romanni chop etish Anvar Sadat tomonidan sobiq prezident Nosirni haligacha yaxshi ko'radigan misrliklarni g'azablantirmaslik uchun taqiqlangan. Taqiqlangan kitobning nusxalarini 1990-yillarning oxirigacha topish butkul mushkul ish edi.

Mahfuz 1988-yilda adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan, bu mukofotni qo'lga kiritgan yagona arab yozuvchisi. Sovrinni qo'lga kiritganidan ko'p o'tmay, Mahfuz shunday deydi: Nobel mukofoti hayotim davomida birinchi marta adabiyotimni xalqaro miqyosda qadrlashi mumkinligini his qildim. Arab dunyosi ham men bilan birga Nobel mukofotini qo'lga kiritdi. Men ishonamanki, xalqaro eshiklar ochildi va bundan buyon savodli odamlar arab adabiyotini ham ko'rib chiqadilar. Biz bunday e'tirofga loyiqmiz.

Najib Mahfuz ijodida xotira motivi markaziy o'rin tutadi. Uning asarlarida, ayniqsa "Qohira trilogiyasi"da, xotira inson shaxsiyatining shakllanishida, o'tgan hayot bilan hozirgi zamon o'rtasidagi ichki ziddiyatni ko'rsatishda muhim badiiy vosita sifatida ishlatiladi. Mahfuz xotirani nafaqat shaxsiy, balki tarixiy va ijtimoiy darajada ham tasvirlaydi — u orqali o'tgan davrning ijtimoiy ruhiy manzarasi, Misr xalqining o'zgaruvchan hayoti ochiladi.

Kamal obrazi misolida adib xotiraning inson ruhiyatiga ta'sirini chuqur ochib beradi: bola ongidan yetuk ziyolilik darajasigacha bo'lgan bosqichda u o'tmish xotiralari bilan yashaydi, biroq ular hozirgi hayot bilan uyg'unlashmaydi. Shu tarzda Mahfuz xotirani ruhiy izlanish, o'zlikni anglash va ijtimoiy muhit bilan kelishmovchilik ramzi sifatida talqin etadi.¹

Najib Mahfuz o'z asarlarida ayollarning jamiyatdagi o'rini yangicha yondashuv bilan talqin etadi.

¹ https://www.academy.ac.il/SystemFiles2015/Bulletin%2024_05_Somekh.pdf

Unga ko'ra, ayollar o'z mavqegini mustahkamlash va o'zgarishlarga erishishda bilim, muloqot va tarbiya muhim rol o'ynaydi. Adib ayolni — ayniqsa onani — jamiyatning eng kichik bo'g'ini bo'lgan oilaning ma'naviy markazi sifatida ko'radi. U mehr, muhabbat, empatiya va qadrlash tuyg'usini avvalo ona orqali shakllanishini ta'kidlaydi.

Mahfuzning fikricha, ayollar uchun ta'lim — bu hayot zarurati, o'z taqdirini o'zgartirish vositasi va jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. U ayollarning yuqori ta'lim olishi faqat shaxsiy yutuq emas, balki millat kelajagi uchun ham muhim omil ekanini ko'rsatadi. Shunga qaramay, adib Misr jamiyatidagi ayrim to'siqlarni, ayollarning erkinlik va ta'limga teng imkoniyatdan mahrum ekanligini ham tanqidiy yondashuv bilan yoritadi.²

Najib Mahfuz ijodini shartli ravishda 3 davrda bo'lish mumkin:

1. Qadimgi Misr mavzusidagi tarixiy romanlar: «Taqdirlar o'yini» (1934), «Radobis» (1943), «Fivlar kurashi» (1944).

2. «Xon al-Xaliliy»dan realistik roman bosqichi boshlanadi. Qohiraning 40-yillardagi o'rta va quyi tabaqalari. Qahramonlar - yashash uchun mashaqqatli kurash olib boradigan qo'li yupqa, kambag'al, omadsiz kishilar.

3. 1952 yildan keyingi - falsafiy bosqich - «Mahallamiz bolalari», «Tilanchi» va boshqalar.

2 - bosqichga oid asarlaridan, ayniqsa, «Qohiradagi janjal» yoki «Yangi Qohira» (1945) ajralib turadi, unda mayda burjua oilasining inqirozi ko'rsatiladi. Shuningdek, «Xon al-Xaliliy» (1946), bu Qohiradagi bozor nomi bo'lib, zargarlik buyumlari savdosi bilan mashhur, yozuvchi bu asarida mayda amaldorning murakkab tuyg'ularini, uning kundalik hayotini aks ettiradi.

1. «Al-Madakk tor ko'chasi» (1947). Urush Al-Madakk tor ko'chasida istiqomat qiluvchi oddiy odamlarning muhabbatini barbod etishi, osoyishtaligini yo'qotishi ko'rsatiladi.

2. «Ibtido va intiho» (1949) romanida oddiy misrliklarning o'z farzandlariga bilim berish, doimiy ish va oilaviy baxt uchun kurashlari o'z aksini topadi.

3. Trilogiya: 1) «Bayn al-Qasreyn» (1956). 2) «Qasr ash-Shauq». 3) «As-Sukkariyya» (1952). Ushbu trilogiya Mahfuzning eng mashhur asari bo'lib, unga birinchi arab romannavisi degan shuhrat keltirgan.«Trilogiya»da 1917 yildan 1944 yilgacha bo'lgan Misr jamiyatining chorak asrlik tarixiy harakati yaxlit tahlil qilinadi.

Zamonaviy adabiy tanqidda intertekstualilik badiiy matnni anglash va tahlil qilishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Bu jarayon yozuvchi uchun ijodiy vosita, o'quvchi uchun esa ma'no qatlamlarini ochish kalitidir. Zabidin va Eldesoky (2023) ta'kidlaganidek, intertekstualilik matnlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni kuchaytirib, asarning badiiy jonlanishini ta'minlaydi.

Najib Mahfuzning "Cairo Modern" romanida xalq maqollari orqali ifodalangan intertekstual unsurlar jamiyatning axloqiy, madaniy va falsafiy qatlamlarini ochib beradi. Bu maqollar nafaqat xalq donishmandligini ifodalaydi, balki asardagi voqealar va obrazlar mazmunini chuqurlashtiruvchi ramz sifatida ham xizmat qiladi. Shunday qilib, Mahfuz intertekstual elementlar yordamida xalq og'zaki ijodi va zamonaviy adabiy shakllar o'rtasida badiiy ko'priklar yaratadi.³

² Sunan Kalijaga: International Journal of Islamic Civilization ISSN 2614-5472 (p), ISSN 2614-7262 (e), Volume1, Number2(2018), Page:235-255

³ INTERNATIONAL JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH IN BUSINESS & SOCIAL SCIENCES Vol 14, Issue 5, (2024) E-ISSN: 2222-6990

Najib Mahfuzning “Afsungar tovog’imni o’g’irladi” hikoyasining tahliliga kelsak, hikoya realizm shaklida bo’lib yengil uslubda yozilgan. Hikoyada asosiy 4ta qahramon bolib: ona, omadsiz yigit, sotuvchi va afsungar obrazlari gavdalandirilgan.

Ona farzandiga do’kondan ful nomli mahsulotni olib kelishni buyuradi, bola esa do’konga 3-4 marotaba borib ham olib kela olmaydi. sabab shuki har borganida sotuvchining savoliga javob berolmaydi:

-Qanday ful kerak, o’zimi yoki o’simlik yog’i bilanmi?

-O’simlik yog’i issiq bo’lsinmi yoki zaytun yog’idan bo’lsinmi?

bu savollarga javob bera olmay har safar uyga qaytib onasidan so’rab keladi, shu vaqt orasida insonlar toplanib, afsungarning namoyishlarini tomosha qilishayotgan bo’ladi. Bolakay ham bu tomoshani ko’rish ilinjida boradi, lekin u yerdan pulini yo’qotib qaytadi, keyingi safar esa tovog’ini yo’qotadi. Shu bilan ona ham sotuvchi ham boladan g’azablandi. Bola hayolparastroq bo’lgani uchun shuncha ish bo’lib o’tsa ham tomosha qutisi oldiga kelib undagi sur’alarni tomosha qilib, pulini ishlatib qo’yadi.

Adib mana shu qutida 3ta sur’atni bayon etadi:

1. Chavandoz sur’ati.

2. Go’zal xonim sur’ati.

3. Iblis sur’ati.

Hayotda 3 narsa insonni asosiy maqsaddan chalg’itib, uning ko’zini shamalab qo’yadi.

Chavandoz erkak bu- mansab va boylik, go’zal xonim esa – nomaxram, o’zlarini ko’z-ko’z qiladigan ayollar, iblis esa- insonni yo’ldan uruvchi shayton nayranglaridir. Umrimiz mobaynida shu narsalarga e’tiborli bo’lib chalg’imasak, hayotimiz davomida anchayin ko’p maqsadlarimizga erishishimiz oson bo’ladi.

Bolaning bir qaror qabul qilolmasligi, landovurligi, hayolparastligi bu-oilada o’g’il bolaga erkak kishining tarbiyasi qanday katta ahamiyatga egaligini ko’rsatadi. Ota o’g’il farzandini o’zi tarbiya qilishligi unda erkaklik xususyatlarini barpo etmog’i lozim. Shunday qilib oilada erkakning o’rni judda kattaligi ham ko’rsatib berilgan.

Afsungar o’braziga kelsak u – xalq yolg’on, fisqu fasodga berilganini ko’rsak bo’ladi.

Sotuvchi esa juda ham badjahl inson bo’ladi, uning obrazida beshavqat tuzumni gavdalandirilgan. 1 qirshga onaning jaxli chiqishi esa xalqning o’sha davrda moliyaviy qiyin holatdaligi ochib berilgan.

Adibning yana bir “Bolalar jannati” hikoyasi esa yuqoridagi hikoyadan ancha farq qiladi.

U bu hikoyada ota qizi bilan bo’lgan suhbatni olib chiqadi. Oila bir dastuxon ustida o’tirgan holatda farzandining cheki yo’q savollariga ota sabr bilan bola tilidan bolalarcha uning savollariga javob berishga harakat qiladi.

Bu qizchanning Nodiya ismli dugonasi bo’lib, ular juda ham qadrdon, bir-birlaridan ajrashni istamaydigan do’st bo’lishadi. Ammo ular maktabda birgina fanda alohida-alohida xonalarga ajrashadi. Bu fan “Ilohiyot” darsi edi. Nodiya dugonasi musulmon esa nasroniy bo’ladi. Shu sabab ular bu darsda ajralishadi. Qizaloqning savollari mana shu mavzuda ochiladi.

Ota birin ketin unga tushuntiradi.

Bu hikoyada Najib Mahfuz 2 dinni bir-biridan ajratmay, yomonlamay ota tilidan so’zlaydi. Diniy tenglikni ko’rsatib beradi, va muslima bo’lish so’nggi moda deb ataydi.

Chunki islom dini eng oxirgi din hisoblanadi. Hikoyada adib insonlarni xushmuomalilikka, diniy tenglikka, farzandlarni yoshlik chog’laridan to’g’ri tarbiya berishga, oilada bir-birlariga nehrli bo’lishlariga chorlaydi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytamanki adibning hikoyalarida, asar va qissalarida sevgi-muabbatni ko'rmasligimiz mumkin, lekin siyosatni albatta uchratamiz. Asarlari orqali Misr jamiyatining ruhiy, siyosiy va ijtimoiy hayotini chuqur tahlil qilgan adibdir. Yozuvchi ko'proq hoyu-havasdan ko'ra reallikka e'tibor qaratkan. Xalqning qiyin ahvoli, tuzumning beshafqatliligi yanada ochib bergan. Nobel mukofoti 1-arab adibi bo'lishi ham bejizga emas. Adibning asarlarida oddiy insonlarning ichki dunyosi, ularning hayotdagi kurashi va orzulari falsafiy teranlik bilan tasvirlanadi. Mahfuz arab adabiyotini yangi bosqichga olib chiqib, uni jahon adabiyoti darajasiga ko'tardi. Uning ijodi o'quvchini hayot, jamiyat va inson mohiyati haqida o'ylashga undaydi.

Shunday qilib, Najib Mahfuz — o'z xalqining og'riqlarini, orzularini va umidlarini badiiy so'z qudrati orqali ifoda eta olgan, insoniyat dardini umuminsoniy darajada yoritgan ulkan yozuvchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/>
2. Jahon nasri online anatalogiyasi.
3. Sunan Kalijaga: International Journal of Islamic Civilization ISSN 2614-5472 (p), ISSN 2614-7262 (e), Volume1, Number2(2018), Page:235-255.
4. https://www.academy.ac.il/SystemFiles2015/Bulletin%2024_05_Somekh.pdf
5. international journal of academic research in business & social sciences vol 14, issue 5, (2024) e-issn: 2222-6990